



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





XONZODA BEGIM HAYOTI VA IJODI

Ulug'bekova Ruxshona Nodirbek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tarix yo'nalishi 25-07 talabasi

sahnozhonulugbekbekov@gmail.com

Yunusova Buxajal Alimovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali

“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boburiylar sulolasining taniqli vakillaridan biri — Xonzodabegimning hayoti, siyosiy-ijtimoiy faoliyati va adabiy merosi ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot asosan “Boburnoma” hamda temuriylar davriga oid mahalliy va xorijiy manbalarga tayanadi. Xonzodabegimning siyosiy voqealardagi ishtiroki, Bobur saroyida tutgan o'rni, madaniy muhitni shakllantirishdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xonzoda Begim, Boburshox, Umarshayx Mirzo, Boburnoma, Gulbadan Begim.

Аннотация: В данной статье представляется научный анализ жизни, общественно-политической деятельности и литературного наследия Хонзодабегим, одной из выдающихся представительниц тюрко-тимуридско-могольской династии. Исследование основывается на «Бабур-наме» и ряде отечественных и зарубежных источников по истории Тимуридов. Рассматриваются участие Хонзодабегим в политических событиях, её роль при дворе Бабура, вклад в формирование культурной и интеллектуальной среды, а также поэтические фрагменты, приписываемые ей.

Ключевые слова: Хонзода Бегим, Бабур-шах, Умаршейх Мирзо, Бабурнаме, Гульбадан Бегим.

Annotation: This paper provides a scholarly analysis of the life, socio-political activity, and literary legacy of Khumzoda Begim, one of the distinguished female figures of the Timurid-Mughal dynasty. The study is based on “Baburnama” as well as various local and foreign historical sources related to the Timurid period. It examines Khumzoda Begim's participation in political events, her influential position in Babur's court, her role in shaping the cultural and intellectual environment, and the poetic fragments attributed to her.

Keywords: Khonzoda Begim, Babur Shah, Umar Sheikh Mirza, Baburnama, Gulbadan Begim.

Boburiylar sulolasi tarixida ayol malikalarning tutgan o'rni, xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning opasi — Xonzodabegim hayoti va ijodi turli manbalarda qisman qayd etilgan bo'lsa-da, uning ma'naviy merosi hali to'liq o'rganilmagan. Xonzodabegim nafaqat temuriylar avlodiga mansub saroy





sultonbegimi, balki siyosiy-diplomatik jarayonlarda ishtirok etgan, saroy madaniyati rivojiga hissa qo'shgan ma'rifatli shaxs sifatida ham ahamiyatlidir.

Xonzoda Begim 1478-yil dunyoga kelgan. U Umarshayx Mirzoning Qutlug' Nigorxonim bilan nikohidan tug'ilgan farzandi. Xonzoda Begim Umarshayx Mirzoning katta qizi bo'lib, ukasi Bobur Mirzodan 5 yosh katta bo'lgan. Temuriylar tarixida o'zining alohida o'rni va maqomiga ega bo'lgan Xonzoda Begim haqida tarixiy manbaalarda juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bobur "Boburnoma" asarida uni bir necha bor mehr bilan zikr qiladi. Bobur uni "aqlli, vazmin va ota merosiga sodiq" shaxs sifatida tavsiflaydi [1, 67]. Temuriylar saroyida qizlarni ham yuksak ma'rifat, adabiyot va diplomatiya ruhida tarbiyalash an'anasi mavjud bo'lgan. Shu sababli Xonzodabegim ham arab-tojik adabiyoti, devon tartibi, xattotlik, she'riyat va saroy odobini mukammal o'rgangan. Tarixchi A. Muhammadiyev shunday ta'kidlaydi, "temuriy xonzodalarning aksari ilmi bo'lgan, ularning oilaning siyosiy va madaniy hayotida ishtiroki yuqori bo'lgan" [2, 114]. Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha, Xonzoda Begim did-farosatli, o'tkir zehinli va aql-zakovat egasi bo'lgan. U saroyda ham, siyosatda ham ayol sifatida hurmat qozongan. Temuriy malikalar haqida gap ketganida Xonzoda Begim aql-zakovati bilan ko'plab muhim qarorlar qabul qilinishida maslahatlar bergan. U hayotining keyingi yillarida ham ukasi Boburga sadoqat bilan yordam bergan. Bobur Hindistonda imperiya tuzganida ham yonida bo'lgan. Ayniqsa, Boburning farzandlari tarbiyasida uning o'rni beqiyos, shuningdek Humoyun va Boburning boshqa bolalariga mehr bilan g'amxo'rlik qilgan.

1500–1512-yillar temuriylar uchun og'ir yillar bo'ldi. Shu vaqtda Xonzodabegim turli siyosiy fojealarga guvoh bo'ldi. Farg'onadan sarson-sargardonlik, shaxsiy asirlik, saroylar o'rtasidagi siyosiy kelishuvlar natijasida uni 1501–1502- yillarda Shayboniyxon saroyiga olib ketilgani ma'lum. Bu voqea Boburning siyosiy rejalariga katta ta'sir ko'rsatgani "Boburnoma"da yoziladi [1, 102]. A.P. Bennigsen fikriga ko'ra, xonzoda ayollarni o'sha davrda siyosiy garov sifatida olish amaliyoti keng tarqalgan bo'lib, bu diplomatik bosimning bir ko'rinishi edi [3, 54]. 1512- yilda Bobur Xonzodabegimni ozod qilishga erishdi va u yana Bobur safida Hindistonga yo'l oldi. Uning ayrim maktublarida "mening taqdirim xalqim va oilam taqdiri bilan bog'liq" degan mazmundagi fikrlar uchraydi [4, 83].

"Boburnoma" asarida Zahiriddin Muhammad Bobur o'z opasi haqida quyidagicha yozadi: "... Bori qizlaridan ulug' Xonzoda Begim edi, mening bilan birga tug'ilgan edi, mendan besh yosh ulug' edi. Men Samarqandni ikkinchi navbat olg'onda, bovujudkim, Shayboniyxon zohidik kishi birla Saripulda chiqib urushib, anchakim imkoni bor edi say va ehtimoldan taqsir qilmaduk, nechukkim maxallida markaz qildim qalandorlik zabti va istexkomi va sardorlikka taqsir bo'lmadi. Atrof va javonibdagi podshoxlar va beklardin xech nav madad va muovanat bo'lmadi, mayus bo'lib solib chiqdi" [1.68].





“Boburnoma” da opa -ukalar bir-birlarini ko’rmaganligi 10 yildan oshiq ta’kidlanadi. Xonzoda Begim ona yurti va oila a’zolari tinchligi uchun nufuzi ikki sulola vakilasi hali oila ko’rmagan bokira qiz bu fidokorligi bilan o’z xohish-irodasi-yu, orzu havaslarini bir chetga surib qo’yib Shayboniynonga turmushga chiqadi. Ammo Xonzodabegim uchun bu holat juda og’ir kechgan, chunki u dushman sulolasi – o’z xalqining dushmani bo’lgan hukmdor bilan yashashga majbur edi. Bu voqeani Gulbadanbegim o’zining “Humoyunnoma” asarida ham tasdiqlab, shunday yozadi: “O’sha Xonzodabegimni o’sha xonga berish, ular uchun g’oyat qayg’uli bo’ldi.” Bu nikohdan Xurramshoh ismli o’g’il tug’ilgan, biroq u yoshligida vafot etgan. Nikoh uzoq davom etmadi. Xonzoda Begim Shayboniynonning haramiga olib kelingan. U yerda u katta hurmat bilan, lekin erkinliksiz yashagan. Shayboniynon 1510-yilda safaviylar bilan bo’lgan jangda halok bo’lgach, Xonzoda Begim ozodlikka chiqadi. Shundan so’ng u ukasi Bobur huzuriga qaytadi va umrining qolgan qismini u bilan o’tkazadi. Bu voqea haqida Bobur o’zining mashhur “Boburnoma” asarida shunday yozadi: “Xonzoda Begimni Shayboniynon asir etgach, keyinroq menga qaytardilar. Men uni katta hurmat bilan qarshi oldim” [1.102]. Bobur Hindistonda hukmronlik qilayotgan paytda opasini “Opam Xonzoda Begim” deb e’zozlab, unga doimo hurmat bilan munosabatda bo’lgan. Xonzoda Begim 1545-yilda Qobul yaqinidagi Qubba degan joyda vafot etgan. Xonzoda Begim – ayol jasorati va sadoqat timsoli sifatida urushlar girdobida yashagan bo’lsa-da, o’z or-nomusi, vafosi va donoligi bilan tarixda o’chmas iz qoldirgan. Ba’zan buyuklik qudratda emas, balki sabr va sadoqatda namoyon bo’ladi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, Xonzodabegim Boburiylar sulolasi tarixida muhim o’rin tutadigan, ammo yetarlicha tadqiq etilmagan ma’rifatli ayollardan biridir. Uning hayoti orqali nafaqat temuriylar tarixi, balki o’rta asr Markaziy Osiyodagi saroy ayollarining madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayotini ham chuqurroq anglash mumkin. U ustoziga sodiq, vataniga muhabbatli, siyosatni va san’atni yaxshi anglagan, Boburning faoliyatlarida ma’rifat va ahloqiy asoslarning shakllanishiga o’z hissasini qo’shgan nufuzli shaxs hisoblanadi. Shunday ekan, Xonzoda Begim- ayol g’ururi, vatanparvarlik va fidoiylilik timsolidir. Bugungi kunda ham ayol-qizlarimiz uchun Xonzoda Begimning hayot yo’li ibrat va namuna bo’lib xizmat qiladi. Tarixiy manbaalarni o’rganish, Xonzoda Begim singari fidoiy ayollarning hayotini yanada kengroq yoritish bizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. — Toshkent: Fan, 2012.
2. Muhammadiyev A. Temuriylar davri madaniyati. — Toshkent: Akademnashr, 2019.
3. Bennigsen A. Central Asian Nobility in the XVI Century. — London, 1983.
4. Ҳаққул Р. Темурий аёллар маданияти ва маърифат анъаналари. — Тошкент, 2007.
5. Hasan M. Culture of Mughal Court Ladies. — Delhi, 1998.

